Olimov Davron Olimovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна	
EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES.....	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	1304
Rabiyev Akram Homitovich	
AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА	1318
Худайберганава Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI Norov Murodjon Maxmudovich	1336
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR..... Maxkamov Otabek Muxammadjonovich	1342
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI..... Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	1351
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	1354
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI Xamdamiyev Shaxzod Ilxom o'g'li	1360
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН..... Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	1365
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI Jalalova Dildora Jamolovna	1371
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA..... Karshieva Marjona Alisher kizi	1375
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI Qurbonova Malika Ahmad qizi	1380
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI Uzoqov Farhod G'afforovich	1384
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI.... Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	1388
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI..... Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	1392
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna	1396
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI Muyassarzoda Fayziyeva	1402
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxeimedova Yayra Atxamovna	1408
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI..... Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	1414
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR..... Zakirova Oisha	1425
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	1431
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI..... Nuraliyeva B.	1437



TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
Raximov Xasan Shukurjonovich	
XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH	1450
Kurolov Maksud Obitovich	
TALIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
Esanova Shohida	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
Хамзина Динара Рашатовна	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
Masharipova Sevara Bekturdi qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATION USULLARI	1487
Marimova Indira Rasul qizi	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODEL.....	1492
Murodov Orif Jumayevich	
TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIY TAJRIBASI	1497
Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ	1502
Киличева Ф.Б.	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI BAHOLASH	1507
Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Quدراتov Islom Ismat o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
Маденова Эльмира Нзаматдиновна	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
Мансуров Обид Зайнидинович	
РЕКЛАМА ХИЗМАТЛАРИ BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION	1545
Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1549
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
IQTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI	1554
Xashimova Salima Nigmatullayevna	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1558
B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich	
BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL	1563
Kurbanova Mohinur Xabib qizi	
KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	1568
Mustafakulova Nodira Primovna	
BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI	1572
Qodirov Baxodir Qudratovich	
SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI	1577
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	1581
Шарахметов Шерзад Шаазимович	
O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI.....	1588
Qodirov Baxodir Tursunovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI.....	1592
Feruz Mirzoyeva Salimovna	
YASHIL O'SISH, YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: ATAMAVIY VA O'ZARO BOG'LIQLIK MASALASI.....	1597
Djalilov Sardor Sadilloevich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMAD VA XARAJATLARNI DEKLARASIYALASHNING TUTGAN O'RNI	1601
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
DIGITAL ECONOMY AND GREEN TECHNOLOGIES: INNOVATIONS ON THE ROAD TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT	1606
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin kizi	
FARG'ONA VODIYSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI VA ULARNI BAHOLASH	1609
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK.....	1616
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi, Yuldashev Abduhakim Abdurkarimovich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1620
Mardiyev Akrom Djumaboyevich	
BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA MUASSASALARINI NATIJADORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	1627
S.J. Sultanov	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORAT VA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1633
Ulashbayev Shohruh Abdivaxobovich	
BIOMASSA ASOSIDA OZUQA ISHLAB CHIQARISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKGA ERISHISHNING AYRIM JIHATLARI	1639
Xazratkulov Niyoz Namazbayevich	
STRATEGIC MANAGEMENT AND DEVELOPMENT OF CORPORATE TALENTS	1644
Shoyunusova Arofat, Sanjar Mirzaliev	
AGROTIZIMDA ANOR YETISHTIRISHNING O'RNI VA IQTISODIY AHAMIYATI	1648
Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATINI HOZIRGI KUNDAGI TAHLILI	1652
Mahmudova Chinora Anvar qizi	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA IMTIYOZLAR VA KAFOLATLAR TIZIMINING AHAMIYATI	1657
Nizamov Xusniddin Fazliddinovich	



SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	1663
Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li	
MINTAQAVIY RIVOJLANISH SHAROITIDA SHAHARLAR AGLOMERATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHLTLARI.....	1670
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR.....	1674
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И МЕТОДЫ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКЦИОНЕРНЫХ КОМПАНИЙ.....	1678
Бекбаева Феруза Бахтиеровна	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA BUDJET BILAN HISOB-KITOBBLAR AUDITINI TASHKIL QILISHNING AMALIY JIHLTLARI.....	1684
Rashidov Zuhridin Sanjar o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1690
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАКТИКИ УПРАВЛЕНИЯ ВАЛЮТНЫМИ РИСКАМИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	1695
Тугалов Бобур Қаршибой угли	
DYUZDO SPORTIDA JAROHATLAR PROFILAKTIKASI VA TIBBIY TIKLANISH USULLARINING SAMARADORLIGI.....	1699
Tangriyev Abdullo Tovashovich	
HAVO TRANSPORTI ORQALI YUK TASHUVCHI TADBIRKORLIK SHAKLLARI VA UNDAGI MUOMMOLAR.....	1703
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	
HUDUDIY IQTISODIYOTDA INNOVATSION SIYOSAT MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING TIZIMLI MODEL.....	1709
G'aniyev Sanjar Poziljon o'g'li	
СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ УЧЕТА ЗАТРАТ И АУДИТА В УЗБЕКИСТАНЕ: НАЦИОНАЛЬНАЯ БАЗА И МСА.....	1716
Юлчиев Ойбек Улуғбек ўғли	
TIJORAT BANKLARIDA YANGI BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHDA XORIJIY TAJRIBALARNI INTEGRATSIYALASH YO'LLARI.....	1723
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH DAVRIDA KICHIK BIZNES IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	1731
Isroilov Dilshodbek Rustamovich, Isroilova Odina Rustambek qizi	
O'RMON XO'JALIGINI MOLİYALASHTIRISHDA MOLİYAVIY RESURLAR VA MANBALAR.....	1737
Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna	
ZAMONAVIY JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI, ISROFI VA YO'QOTISHLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI.....	1743
Nazarova Gulbahor Raxmonkulovna	
KORXONA FOYDASI VA UNING RAQOBATBARDOSH NARX SIYOSATINI MAKSIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	1748
Axmadjonov Murodjon Axadjon o'g'li	
DEVELOPMENT PRIORITIES FOR THE FRUIT AND VEGETABLE SECTOR IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S FOOD SECURITY POLICY	1754
Nazarova Munavvar Soatmurod qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA HR MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1761
Xamroyeva Kumush Alisherovna	
QURILISH SANOATIDA BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI.....	1768
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
TURISTIK DESTINATSIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	1772
Bekberganov Izzat Hurmat o'g'li	
TRANSPORT XIZMATLARI BOZORI TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI.....	1775
Jo'rayeva Shahzoda Farhod qizi	
O'ZBEKISTONDA QURILISH MAXSULOTLARI ISHLAB CHIQRADIGAN KORXONALARNING RAQOBATBARDOSHLIGI TAHLILI	1781
Yusufova Laylo G'ayrat qizi	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK MAHSULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH TENDENSIYALARI.....	1788
Xujamuratov Abbos Mardonovich	
PR-BO'LIMI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING TARKIBIY-FUNKTSIONAL YONDASHUVLARI.....	1792
Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna	
TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS TENDENSIYALARI	1797
Xujakulova Odina Valijonovna	
DAVLATNING IQTISODIY MUVOZANAT VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI ROLI.....	1805
Uzoqov Bekzod Bozor o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MAHALLIY MODA BRENDINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	1810
Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna	
DEVELOPMENT OF TOURISM INFRASTRUCTURE IN UZBEKISTAN	1817
Sadinova Maqsuda Azamjonovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI	1824
Raxmonov Bekzod Sharibjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1832
Djurayev Laziz Tursunboyevich	
TA'LIM TASHKILOTLARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETINGNING ROLI	1836
Raximov Faxriddin Shavkatovich, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
TURIZM INDUSTRIYASI VA TURIZM INFRATUZILMASINING MOHIYATI HAMDA TARKIBIY QISMLARI	1844
Mo'minova Mavjuda Sharifovna	



TURIZM INDUSTRIYASI VA TURIZM INFRATUZILMASINING MOHIYATI HAMDA TARKIBIY QISMLARI

Mo'minova Mavjuda Sharifovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

Email: mavjudamuminova10@gmail.com

ORCID: 0009-0005-4888-9341

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm industriyasi va turizm infratuzilmasining mohiyati, ularning iqtisodiyotdagi o'rni hamda o'zaro bog'liqligi ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Turizm industriyasi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim omil sifatida qaralib, u xizmatlar sohasini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va investitsiyalarni jalb etishdagi roli bilan ajralib turadi. Shuningdek, turizm infratuzilmasining asosiy tarkibiy qismlari — transport, joylashtirish, ovqatlanish, kommunikatsiya va axborot tizimlari kabi elementlar iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada, shuningdek, turizm infratuzilmasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari hamda barqaror turizmni qo'llab-quvvatlovchi omillar yoritilgan.

Kalit so'zlar: turizm industriyasi, infratuzilma, iqtisodiy rivojlanish, xizmatlar sohasi, barqaror turizm, investitsiya.

Abstract. This article examines the essence of the tourism industry and tourism infrastructure, their role in the economy, and their interrelationship. The tourism industry is considered a key factor in national economic development, contributing to the expansion of the service sector, job creation, and attraction of investments. The main components of tourism infrastructure — transportation, accommodation, catering, communication, and information systems — play an important role in ensuring economic efficiency. The study also highlights modern trends in tourism infrastructure development and factors that support sustainable tourism.

Key words: tourism industry, infrastructure, economic development, service sector, sustainable tourism, investment.

Аннотация. В данной статье рассматриваются сущность туристской индустрии и инфраструктуры туризма, их роль в экономике и взаимосвязь. Туристская индустрия выступает важным фактором экономического развития страны, способствуя расширению сферы услуг, созданию новых рабочих мест и привлечению инвестиций. Основные элементы туристской инфраструктуры — транспорт, размещение, питание, коммуникации и информационные системы — играют значительную роль в обеспечении экономической эффективности. В статье также анализируются современные направления развития туристской инфраструктуры и факторы поддержки устойчивого туризма.

Ключевые слова: туристская индустрия, инфраструктура, экономическое развитие, сфера услуг, устойчивый туризм, инвестиции.

KIRISH

So'nggi yillarda dunyo miqyosida turizm sohasi global iqtisodiyotning eng tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Turizm nafaqat iqtisodiy foyda keltiruvchi soha, balki mamlakatlar o'rtasidagi madaniy, ijtimoiy va siyosiy aloqalarni mustahkamlovchi muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, turizm industriyasi har bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti va xalqaro imijini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Turizm infratuzilmasini takomillashtirish, xizmatlar sifatini oshirish va xorijiy turistlar uchun qulay muhit yaratish bo'yicha qabul qilinayotgan dastur va strategiyalar mamlakatning jahon turizm bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan.

Turizm industriyasi va turizm infratuzilmasi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, biri ikkinchisiz to'laqonli faoliyat yurita olmaydi. Infratuzilma turizm xizmatlarini ko'rsatish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik, kommunikatsion va tashkiliy shart-sharoitlar majmuasini ifodalaydi. Shu bois, turizm infratuzilmasining har bir tarkibiy qismi — transport, joylashtirish vositalari, ovqatlanish tizimi, axborot-kommunikatsiya tarmoqlari hamda madaniy va ko'ngilochar xizmatlar — turizm industriyasining samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi.



Mazkur mavzuda olib borilgan tadqiqotlar turizm infratuzilmasini barqaror va innovatsion asosda rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish, hududiy turizm salohiyatini kengaytirish, shuningdek xizmatlar sifati va diversifikatsiyasini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Shu jihatdan, ushbu maqolada turizm industriyasi va infratuzilmasining mohiyati, ularning iqtisodiyotdagi o'ri hamda o'zaro bog'liqligi nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda turizm industriyasi va turizm infratuzilmasining barqaror rivojlanishi masalalari jahon miqyosida ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Turizmning iqtisodiy o'sishga ta'siri, infratuzilmaning turizm samaradorligidagi o'ri hamda raqamli texnologiyalar ta'sirida sohaning modernizatsiya jarayoni ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan chuqur o'rganilmoqda.

Jumladan, Dilafruz Usmonova (O'zbekiston) o'z tadqiqotida O'zbekiston turizm bozorida infratuzilmaning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilib, mehmonxona xo'jaligi, transport va logistika xizmatlari turizm oqimini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlagan [1]. Sardor Karimov (O'zbekiston) o'z maqolasida turizm sohasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining samaradorligini o'rganib, zamonaviy infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda ushbu modelning ustuvorligini asoslab bergan [2]. Munisa Sattorova (O'zbekiston) o'z izlanishlarida ekologik va barqaror turizm infratuzilmasining rivojlanish masalalariga e'tibor qaratgan. U, yashil energetika, chiqindisiz transport va ekologik mehmonxonalar konsepsiyasi O'zbekiston turizm sektorida raqobatbardoshlikni oshiruvchi muhim omil ekanini qayd etgan [3].

Xalqaro miqyosda, Richard Butler (Kanada) o'zining mashhur "Tourism Area Life Cycle" nazariyasida turizm hududlari rivojlanishida infratuzilmaning evolyutsion o'zgarishlarini izohlab, infratuzilma sifati va turistik talab o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy asoslab bergan [4]. UNWTO (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Butunjahon Turizm Tashkiloti) hisobotlarida (2023–2024-yillar) turizm infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi, "smart tourism" konsepsiyasi va "digital destination management" tizimlarining joriy etilishi global turizm sanoatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rsatilgan [5]. Svetlana Korneyeva (Rossiya) o'z tadqiqotida turizm infratuzilmasining hududiy rivojlanish strategiyasidagi o'ri va investitsion jozibadorlikni oshirish omillarini tahlil qilgan. Uning fikricha, transport tarmoqlarini kengaytirish, elektron xizmatlarni rivojlantirish va madaniy meros obyektlarini modernizatsiya qilish turizmni rag'batlantiruvchi asosiy infratuzilma yo'nalishlaridir [6]. OECD Tourism Trends and Policies Report (2024) ma'lumotlariga ko'ra, infratuzilmaga yo'naltirilgan davlat investitsiyalari va barqaror turizm siyosati uyg'unligi mamlakatlarning turizm raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi [7].

Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, turizm industriyasi samaradorligini oshirishda infratuzilmaning rivojlanish darajasi, xizmatlar sifati, raqamli texnologiyalarni joriy etish, shuningdek davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiyalarni kengaytirish muhim strategik yo'nalishlardandir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda turizm industriyasi va turizm infratuzilmasining mohiyati, ularning o'zaro bog'liqligi hamda iqtisodiy rivojlanishdagi o'ri tizimli tahlil asosida o'rganildi. Tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvlari tizimli, strukturaviy-funksional, tahliliy, taqqoslash va empirik metodlardan iboratdir.

Tizimli yondashuv yordamida turizm industriyasining tarkibiy tuzilmasi, infratuzilma elementlarining o'zaro aloqasi hamda ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri aniqlab olindi. Strukturaviy-funksional yondashuv turizm infratuzilmasining asosiy qismlari — transport, joylashtirish, ovqatlanish, kommunikatsiya, axborot va ko'ngilochar xizmatlarning umumiy tizimdagi funksional rolini ochib berdi. Tahliliy metod orqali O'zbekiston turizm infratuzilmasining hozirgi holati, mavjud muammolar va rivojlanish tendensiyalari statistik ma'lumotlar asosida baholandi. Taqqoslash metodi yordamida O'zbekiston tajribasi Turkiya, Ispaniya, BAA va Malayziya kabi mamlakatlarning ilg'or infratuzilma modellari bilan solishtirilib, samarali yondashuvlar aniqlangan. Empirik yondashuv doirasida O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi, Statistika agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, shuningdek Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) va Butunjahon iqtisodiy forumi (WEF) hisobotlaridan olingan rasmiy ma'lumotlar tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi tanlangan mavzuning ilmiy asoslanganligini, tahlil natijalarining ishonchligini hamda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm industriyasi jahon iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Turizmning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 10 foizdan ko'proqni tashkil etadi, tarmoqda jahondagi



mehnatga qobiliyatli aholining qariyb 8 foizi band bo'lib, turizm xizmatlari jahon eksportining 7 foizdan ortig'ini tashkil etadi. Bugungi kunda "turizm industriyasi" tushunchasining turli ta'riflari mavjud bo'lib, ular orasida eng ishonchli va mukammali Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyotga bag'ishlangan anjumanida berilgan ta'rif hisoblanadi¹.

Ushbu anjumanda e'tirof etilganidek, turizm industriyasi — turistlar ehtiyojini qondirish uchun turistik mahsulotlar yaratishga yo'naltirilgan barcha turistik tashkilotlarning turli faoliyatlari yig'indisidan iboratdir.

Keyingi yillar davomida ushbu ta'rifning mazmun va mohiyatini aniqlash hamda turizm industriyasining tarkibiy qismlarini tavsiflash yo'lida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Biroq bu borada izlanish olib borgan tadqiqotchilar va amaliyotchilar bir qator qiyinchilik hamda to'siqlarga duch kelganlar. Bunday qiyinchiliklarning yuzaga kelishiga asosiy sabab — turizm industriyasining iqtisodiyotning boshqa sohalari bilan chambarchas bog'liqligidadir.

Turizmning keng ko'lamli ehtiyojlarini qondirishda sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va savdo tarmoqlari yagona tizim sifatida ishtirok etadi. Shu sababli, turizm industriyasini boshqa sohalardan keskin ajratish yoki chegaralash o'ta murakkab masaladir.

Hozirgi kunda faol iste'molchi o'ziga kerakli xizmatlar haqida individual tasavvur shakllantiradi va bu jarayon bozor taklifiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Natijada, turizm industriyasi o'z tarkibini moslashtirib, zamonaviy turistlarning xohish-istaklarini hisobga olgan holda yangi turistik-rekreatsion obyektlarni yaratadi hamda xizmat ko'rsatish tizimiga yashash qulayligi, yuqori sifat va originallikni ta'minlovchi yangi faoliyat turlarini jalb etadi. Bu esa, o'z navbatida, turizm infratuzilmasini tashkil etuvchi muhit va resurslardan yanada faol foydalanishga, shuningdek ilgari turistik hisoblanmagan yangi resurslarni — qishloq va ekologik turizmni — muomalaga jalb etishga turtki beradi.

Turizm industriyasi mavjud resurslardan shunchaki foydalanib qolmasdan, balki muhitga nisbatan o'zining individual talablarini shakllantiradi va resurslar bilan o'zaro ta'sir xarakterini o'zgartiradi.

Turizm industriyasi — bu mehmonxonalar va joylashtirish vositalari, transport vositalari, umumiy ovqatlanish obyektlari, ko'ngilochar muassasalar, sog'lomlashtirish, sport, diniy, marosim, ishbiarmonlik va boshqa yo'nalishlarga mo'ljallangan obyektlar, turizm operatorlari hamda turizm agentliklari, shuningdek turizm infratuzilmasini ta'minlovchi tashkilotlar majmuasidan iborat tizimdir.

O'zbekiston Respublikasining 18.07.2019-yildagi "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-son² Qonunida turistik industriya tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi: "Turistik industriya — turistlarga xizmat ko'rsatishni ta'minlovchi turli subyektlar (mehmonxonalar, turistik komplekslar, kempinglar, motellar, pansionatlar, umumiy ovqatlanish va transport korxonalari, madaniyat hamda eksport muassasalari va boshqalar) majmui", deb belgilangan.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida mamlakatning yoki turistik markazning ijtimoiy tuzilishidan qat'i nazar, turizm industriyasida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi bir qator korxonalar — turizmni tashkillashtiruvchi turoperatorlar va turistik agentliklar faoliyat yuritadi. Bundan tashqari, turistlarni tashuvchi kompaniyalar, mehmonxonalar, joylashtirish tizimining boshqa korxonalari, umumiy ovqatlanish obyektlari, attraksionlar, ko'ngilochar joylar, shuningdek banklar, sug'urta kompaniyalari va boshqa xizmat ko'rsatuvchi muassasalar ham ushbu tizimning tarkibiy qismidir.

Turizmning maxsus turlarida davolash muassasalari, o'quv markazlari, sport inshootlari va turistik mahsulot maqsadiga mos boshqa muassasalar ham faol ishtirok etadi. Ushbu tashkilotlarning barchasi bir-birini to'ldiradi va iste'molchi uchun zarur bo'lgan, assortiment jihatidan yetarli darajadagi xizmatlarni taqdim etadi.

Turizm infratuzilmasi — bu turistik faoliyatni amalga oshirishda turistlarning turistik resurslardan samarali foydalanishini ta'minlovchi bino va inshootlar tizimi, muhandislik hamda kommunikatsiya tarmoqlari majmuasidir. Unga avtomobil va temir yo'llar, havo, dengiz va daryo transporti, issiqlik, suv, elektr energiyasi, aloqa vositalari va axborot texnologiyalari tizimlari kiradi.

Turizm sohasida tabiiy-iqlim, tarixiy-madaniy, ma'rifiy hamda ijtimoiy-maishiy resurslarga ega hududlarda infratuzilmani rivojlantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Yo'llarning holati, transport tarmoqlarining rivojlanganligi va infratuzilmaning qulayligi turistlar oqimining ortishi yoki kamayishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, yo'llar, bozorlar va kommunikatsion tizimlar mamlakatning iqtisodiy hamda madaniy rivojlanish darajasini belgilovchi muhim ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda turizm infratuzilmasini zamon talablariga moslashtirish maqsadida hukumat tomonidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Turist — avvalo dam oluvchi bo'lib, unga ko'rsatiladigan xizmatlarning iste'molchisi ekanini unutmaslik zarur. Bular nafaqat avtomobil yo'llariga, balki temir yo'llarga ham taalluqlidir. Vokzal va poyezd relslaridan tortib, ularning ichki kommunikatsiya hamda muhandislik tarmoqlarigacha bo'lgan barcha tizimlar turizm infratuzilmasining ajralmas tarkibiy qismini tashkil etadi.

¹ <http://www.unwto.org>

² <https://www.lex.uz/docs/-4428097>



Nafaqat avtomobil va temir yo'llar, balki turistlar uchun maxsus ajratilgan yo'laklar, piyoda yo'llar ham xalqaro talablarga mos bo'lishi lozim. Mehmonxona va unga tenglashtirilgan joylardagi muhandislik-kommunikatsiya tizimlarida muammolarning mavjud emasligi turizm sohasining yangi bosqichga ko'tarilishida muhim omil sanaladi.

Bir tasavvur qilaylik: issiqlik tarmog'i ishlamaydigan, elektr ta'minoti sust, kanalizatsiya tizimi mavjud bo'lmagan yoki ichimlik suvi talab darajasida ta'minlanmagan mehmonxonalarda turistlarning bo'lishi amalda mumkin emas. Bular va shunga o'xshash holatlar turizm infratuzilmasining rivojlanishida kechiktirib bo'lmaydigan, tezkor hal etilishi zarur bo'lgan muammolardan biridir.

Ayniqsa, olis tog'li hududlar va yo'l trassalarida bu masalalarni yechish katta kapital mablag'larni talab etadi. Hozirda respublikamizning asosiy avtomobil yo'llaridagi shox bekatlar (servis maskanlari) xorijiy turistlarga xizmat ko'rsatish darajasiga to'liq javob bermaydi. Turistlar qisqa muddatda hojatini chiqarish, dam olish yoki tibbiy yordam olish imkoniga ega bo'ladigan zamonaviy servis obyektlarining yetishmasligi — infratuzilmani rivojlantirish borasidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, bir vaqtlar Buyuk Ipak yo'li o'tgan maskanlarda karvonsaroylar faoliyat yuritgan. Ular savdo karvonlari uchun hozirgi zamon mehmonxonalari vazifasini bajargan. Karvonsaroylarda tunash uchun xonalar, ichimlik suvi manbalari, ovqatlanish xonasi, shuningdek tabiblar, mashshoqlar, qo'riqchilar va boshqa xizmatlar mavjud bo'lgan.

Yurtimiz qadimiy tarix va boy madaniyatga ega. Arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bundan uch ming yil avval hozirgi kanalizatsiya tizimiga o'xshash kommunikatsiya tarmoqlari mavjud bo'lgan. Ichimlik suvi sardobalar orqali, sopol quvurlar yordamida yetkazilgan. Bu esa qadimda ham muhandislik tarmoqlari rivojlanganidan dalolat beradi. Shunday tarixiy va an'anaviy merosni qayta tiklash hamda uni zamonaviy sharoitga moslashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Hozirgi davrda turizm infratuzilmasida bank va moliyaviy xizmatlarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Turistlar sayohat chog'ida turli xizmat turlaridan foydalanishni xohlashadi, shu bois ular uchun to'lov tizimlarining qulayligi muhim omil hisoblanadi.

Pulni, ayniqsa katta miqdordagi naqd mablag'ni olib yurish turistlar uchun xavf va noqulaylik tug'diradi. Bunday holat o'g'rilik yoki tovlamachilik kabi jinoyat xavfini oshiradi. Shu sababli, turizm sohasida xavfsiz to'lov tizimlarini yaratish zarurati dastlabki yillardan mavjud bo'lib, bugungi kunda bu muammo kompyuter texnologiyalariga asoslangan viza va kredit kartalari orqali o'z yechimini topgan.

Axborot xizmati ham turizm infratuzilmasining ajralmas bo'lagidir. Turistlar sayohatga tayyorgarlik jarayonida va sayohat davomida boradigan joy haqidagi ma'lumotlarga muhtoj bo'ladilar. Ular uchun mamlakatning qonun-qoidalari, urf-odatlar, mehmondo'stlik madaniyati, transport tarmoqlari xaritasi va turistik obyektlar joylashuvi haqidagi aniq axborot zarur.

Bugungi kunda sayohat va turizmga oid ma'lumotlar ommabop hamda maxsus adabiyotlarda, shuningdek internet tarmoqlarida keng tarqatilmoqda. Turizm infratuzilmasini zamonaviy axborot texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Tezkor aloqa, onlayn xabardorlik va interaktiv xizmatlar turizmning muhim jihatlaridan biridir.

Zamonaviy turist internet, mobil ilovalar, onlayn to'lov tizimlari va boshqa raqamli vositalardan faol foydalanadi. Bu esa turizm infratuzilmasining raqamli darajasi va texnologik imkoniyatlari mamlakatning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omil ekanini ko'rsatadi. Bugungi kunda turistik xizmatlar, sayyohlik markazlari haqidagi ma'lumotlar joylashgan millionlab internet saytlar orqali nafaqat sayohat agentliklarini tanlash, balki tur paketlarini, chiptalarni va boshqa xizmatlarni oldindan bron qilish hamda to'lovlarni amalga oshirish imkoniyati mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, turizm industriyasi mamlakat iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, uning barqaror o'sishi ko'p jihatdan infratuzilmaning holati va samaradorligiga bog'liqdir. Turizm infratuzilmasi — bu transport, mehmonxona xo'jaligi, ovqatlanish va dam olish obyektlari, muhandislik kommunikatsiyalari hamda servis xizmatlarining uyg'un tizimi bo'lib, ular turistlar uchun qulay va xavfsiz muhit yaratadi. Infratuzilma darajasi yuqori bo'lgan hududlarda turistik oqim hajmi va iqtisodiy rentabellik sezilarli oshadi, bu esa mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlash bilan birga, mintaqaviy rivojlanishni ham jadallashtiradi. Shu bois turizm infratuzilmasini kompleks rivojlantirish strategik iqtisodiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralishi lozim.

Sohani yanada rivojlantirish uchun transport-logistika tizimini raqamlashtirish, ekologik toza va barqaror infratuzilma loyihalarini joriy etish, mehmonxona va servis obyektlarida xalqaro standartlarni tatbiq etish, mahalliy aholining turizm xizmatlarida ishtirokini kengaytirish hamda kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish zarur. Shuningdek, hududiy turizm klasterlarini shakllantirish, xususi sarmoyadorlar uchun soliq va investitsiya imtiyozlarini kengaytirish, raqamli marketing va onlayn bronlash platformalarini rivojlantirish turizm



industriyasining raqobatbardoshligini oshiradi. Shu yo'sinda O'zbekiston turizm bozorida barqaror o'sishni ta'minlab, xalqaro turizm markazlaridan biri sifatida o'z mavqeini mustahkamlay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Usmonova D. (2022). *O'zbekiston turizm bozorida infratuzilma tizimini rivojlantirish omillari*. — "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali, №3, 45–52-betlar.
2. Karimov S. (2023). *Davlat-xususiy sheriklik asosida turizm infratuzilmasini moliyalashtirishning istiqbollari*. — "Milliy iqtisodiyot" jurnali, №2, 67–74-betlar.
3. Sattorova M. (2024). *Barqaror turizm infratuzilmasi: ekologik yondashuv va amaliy tajriba*. — "Turizm va servis" jurnali, №1, 30–38-betlar.
4. Butler R. (1980). *The Concept of a Tourist Area Cycle of Evolution: Implications for Management of Resources*. — *Canadian Geographer*, Vol. 24(1), pp. 5–12.
5. UNWTO (2024). *World Tourism Barometer and Digital Transformation Report*. — Madrid: UNWTO Publications.
6. Korneyeva S. (2023). *Regional Development and Tourism Infrastructure in Russia*. — *Journal of Regional Economics and Tourism Studies*, Vol. 12, pp. 55–63.
7. OECD (2024). *Tourism Trends and Policies*. — OECD Publishing, Paris.
8. Usmanova Z.I. — O'zbekistonda turistik - rekreatsion xizmatlarni rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (doctor of philosophy) dissertatsiyasi. 2018.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
